

Davlat byudjeti mablagʻlari sarflanishida moliyaviy nazoratni takomillashtirish yoʻllari

Zokir Xamidbek oʻgʻli Sultanov
Oʻzbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻzbekiston davlat byudjeti mablagʻlari sarflanishi ustidan moliyaviy nazoratni tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasi, davlat maqsadli jamgʻarmalari hajmining oʻzgarishi hamda tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilayotgan dasturlar koʻlami statistik maʼlumotlar asosida oʻrganilgan. Shuningdek, natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish konsepsiyasining joriy etilishi istiqbollari muhokama qilingan.

Kalit soʻzlar: davlat byudjeti, moliyaviy resurslar, nazorat tizimi, davlat maqsadli jamgʻarmalari, fiskal barqarorlik, tashqi qarz, shaffoflik, natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish, iqtisodiy rivojlanish, ichki va tashqi audit

Ways to improve financial control over the spending of state budget funds

Zokir Hamidbek oğlu Sultanov
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the issues of organizing and improving financial control over the spending of state budget funds of Uzbekistan. The dynamics of state budget revenues and expenditures, changes in the volume of state trust funds, and the scope of programs financed from external debt are studied based on statistical data. The prospects for the implementation of the concept of result-oriented budgeting are also discussed.

Keywords: state budget, financial resources, control system, state trust funds, fiscal stability, external debt, transparency, result-oriented budgeting, economic development, internal and external audit

Davlat byudjeti mablagʻlaridan samarali va maqsadli foydalanishni taʼminlash davlat moliya siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida byudjet mablagʻlarining shaffofligi, ularni manzilli sarflash hamda har bir xarajatning natijadorligini oshirish davlat moliyasini boshqarish tizimida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy nazorat tizimini

takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazorat nafaqat mablag'larning qonuniy va maqsadli sarflanishini, balki ularning iqtisodiy samaradorligini ham ta'minlaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy nazoratning samarali ishlashi byudjet mablag'lari sarfini optimallashtirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekistonda ushbu sohada zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish va raqamli texnologiyalarni qo'llash tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Moliyaviy nazorat jamiyat iqtisodiyotidagi iqtisodiy samaradorlikni rag'batlantirish, moddiy ,mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini imkoniyat darajasida iqtisod qilinishi bilan dolzarb ahamiyatga ega..

Global iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib borayotgan murakkab sharoitda ham O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2025-yilgi Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari prognozlariga ko'ra, mamlakat iqtisodiy o'sish sur'ati 6,0 foiz darajasida bo'lishi kutilmoqda. O'rta muddatli istiqbolda esa ushbu ko'rsatkich 2026-yilda 6,1 foiz, 2027-yilda esa 6,3 foiz darajasiga yetishi rejalashtirilgan. 2025-yilda Davlat byudjeti daromadlari 308 trln so'm, xarajatlari esa 344, trln so'm atrofida shakllanishi kutilmoqda. Xarajatlarning qariyb 52 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi belgilangan¹. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish, ekologik muammolarni hal etish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish yo'nalishlariga ajratiladigan mablag'lar hajmi sezilarli darajada oshiriladi.

Moliyaviy nazorat davlat moliyaviy boshqaruvining asosiy elementlaridan biri sifatida keng o'rganilgan. R.A.Musgrave va P.B.Musgrave (1989) o'z asarlarida moliyaviy nazoratni davlat byudjeti mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Shuningdek, J.Stiglitz (2000) byudjet mablag'larini sarflashda shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari moliyaviy nazorat samaradorligini belgilovchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, 2010) va Jahon banki (2020) hisobotlarida davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishda auditorlik tizimlari, ichki nazorat mexanizmlari va elektron boshqaruvning ahamiyati alohida ta'kidlangan. OECD (2018) esa rivojlangan davlatlarda budjet mablag'lari sarflanishi ustidan monitoring va natijadorlikni baholash tizimlari keng qo'llanilishini qayd etadi.

O'zbekistonlik olimlar ham bu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, A.Vaxobov, R.Alimov va boshqa iqtisodchilar davlat byudjeti ijrosi ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish masalalarini tahlil qilib, Hisob palatasi, G'aznachilik va ichki audit xizmatlari faoliyatining takomillashtirilishi zarurligini ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligining so'nggi yillarda e'lon qilgan hisobotlarida byudjet mablag'lari sarflanishida samaradorlik, maqsadlilik va natijadorlik mezonlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida

¹ <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fee116744775ad5afc5f9362563c8b18>

ko'rsatilgan. Shuningdek, "Elektron byudjet" axborot tizimining joriy etilishi davlat xarajatlari ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirishga xizmat qilayotgani alohida qayd etiladi.

Konsolidatsiyalashgan budjet jamlanma parametrlari, YIMga nisbatan foizda²

	Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2026	2027
I	Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	28,8	27	26,7	26,4	26,6	26,6
	Davlat budjeti daromadlari	20,3	19,4	19,2	18,9	19	19,1
	DMJ daromadlari	3,8	3,9	3,9	4,1	4,4	4,4
	TTJga tushumlar	0,9	0,9	0,9	1,4	1,3	1,2
	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	3,8	2,7	2,2	2,1	2	1,8
II	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	32,3	32	30,8	29,4	29,6	29,6
	Davlat budjeti xarajatlari	23,8	23,6	22,5	21,1	21,2	21,3
	DMJ xarajatlari	3,8	3,9	3,9	3,9	4,1	4,2
	TTJ mablag'larining sarflanishi	0,8	0,7	0,5	0,6	0,6	0,7
	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining sarflanishi	3,4	2,6	2	2,1	2	1,8
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	0,5	0,2	0,2	0,6	0,7	0,6
III	DMJga transfertlar	2,8	2,6	2,6	3,3	2,8	2,5
IV	Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi	-3,5	-5	-4,1	-3	-3	-3
V	Davlat budjeti va DMJ taqchilligi	-3,6	-3,9	-3,1	-2	-2	-2

Jadval asosida 2022-2027-yillarga oid konsolidatsiyalashgan budjet jamlanma parametrlari YIMga nisbatan foiz hisobida tahlil qilindi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 2022-yildagi 28,8% dan 2024-yilda 26,7% gacha, 2027-yilda esa 26,6% darajasida shakllanishi prognoz qilinmoqda. Davlat byudjeti daromadlari ulushi esa 2022-yildagi 20,3% dan 2027-yilga kelib 19,1% gacha kamayadi. Shu bilan birga, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 2022-yildagi 3,8% dan 2026-2027-yillarda 4,4% gacha yetishi kutilmoqda. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tushumlari esa aksincha, 2022-yildagi 3,8% dan 2027-yilda 1,8% gacha pasayadi, bu esa davlat moliyasida markazlashtirish darajasi ortib borayotganini bildiradi.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari 2022-yildagi 32,3% dan 2027-yilda 29,6% gacha kamayadi. Davlat byudjeti xarajatlari ulushi 23,8% dan 21,3% gacha qisqarishi kutilmoqda, davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari esa 2022-2027-yillarda 3,8% dan 4,2% gacha o'sib boradi. Tashqi qarz hisobidan moliyalashtiriladigan davlat dasturlari xarajatlari 2022-yildagi 0,5% dan 2025-yilda 0,6% gacha ko'tarilib, 2027-yilda ham shu darajada qoladi.

Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2022-yildagi -3,5% dan 2023-yilda -5% gacha oshib, keyinchalik -3% darajasida barqarorlashishi rejalashtirilmoqda. Umuman

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Fuqarolar uchun byudjet" axborot nashrlari, Fiskal strategiya-2023-2025 ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-813-son Qonunining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2024-2025 yillarga byudjet mo'ljallari" deb nomlangan 1-ilovasi asosida magistrant tomonidan tuzildi. Manba: openbudget.uz.

olganda, 2022-2027-yillar davomida byudjet daromadlari va xarajatlari ulushi nisbatan kamayishi, taqchilikning esa 2025-yildan boshlab YIMga nisbatan 3% atrofida barqarorlashuvi mamlakatda fiskal intizomni mustahkamlash va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, byudjetdan tashqari mablag'lar ulushining kamayishi davlat moliyasida markazlashtirish kuchayib, mablag'lardan foydalanishda nazorat va samaradorlikning oshishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Hozirgi sharoitda moliya, byudjet va soliq intizomiga to'liq amal qilinmayotgani, byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanish holatlari hanuz uchrab turgani moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish zaruratini ko'rsatmoqda. O'zbekiston tajribasida hozircha davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalar xarajatlari tashqi audit qamroviga olingan bo'lib, bu jami byudjet xarajatlarining qariyb 86 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, byudjetdan tashqari mablag'lar va tashqi qarz hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar to'liq auditdan o'tkazilmay kelmoqda. Mahalliy darajada ham nazorat yetarli emas: viloyat va tuman Kengashlari asosan o'z hududiy byudjetlarini ko'rib chiqadi, natijada hududlarga turli manbalar orqali ajratiladigan mablag'larning 65-70 foizi ularning nazoratidan chetda qoladi.

Bundan tashqari, moliyaviy nazorat organlari o'rtasida hamda ular bilan soliq, bojxona, bank tizimi kabi muassasalar o'rtasida axborot almashish mexanizmlari to'liq shakllanmagani nazorat samaradorligini pasaytiradi. Yana bir muammo - malakali kadrlar va zamonaviy audit uslublarining yetishmasligi bo'lib, xalqaro sertifikatlarga ega auditorlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilg'or xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda davlat moliyaviy nazorati tizimi yuqori darajada shakllangan bo'lib, oliy audit organlari barcha davlat moliyaviy manbalaridan foydalanishni mustaqil ravishda to'liq nazorat qiladi. Ko'plab davlatlarda moliyaviy nazorat xalqaro audit standartlari - INTOSAI ishlab chiqqan ISSAI me'yorlari asosida olib boriladi. Masalan, strategik audit (milliy dasturlar samaradorligini baholash) hamda axborot texnologiyalari auditi (dasturiy ta'minot va raqamli tizimlarning samaradorligini tekshirish) keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, risk-tahlil asosida masofadan turib monitoring qilish usullari joriy etilib, minglab byudjet tashkilotlarini real vaqt rejimida joyiga bormasdan turib kuzatish imkoniyati yaratilgan. Ko'plab davlatlarda byudjet jarayonida shaffoflik va jamoatchilik nazorati ham alohida e'tibor markazida bo'lib, ochiq byudjet portallari va ommaviy hisobotlar orqali fuqarolar ishtiroki ta'minlanadi.

O'zbekistonda esa tashqi moliyaviy nazorat Oliy Majlis palatalariga hisobot beruvchi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladi. U ilgari asosan davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalar ijrosini tekshirgan bo'lsa, ichki nazorat Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirlik va idoralardagi ichki audit xizmatlari zimmasiga yuklatilgan. So'nggi yillarda ushbu

tizimni takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi: Hisob palatasida "Masofaviy nazorat markazi" ishga tushirilib, xorijiy tajriba asosida risk-tahlil mezonlari takomillashtirildi. Endilikda konsolidatsiyalashgan davlat byudjeti, jumladan, byudjetdan tashqari mablag'lar va tashqi qarz mablag'lari ham tashqi auditorlik nazoratiga to'liq jalb etiladigan bo'ldi.

Davlat byudjeti mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda moliyaviy nazoratning ahamiyati juda katta. U nafaqat mablag'larning qonuniy sarflanishini kafolatlaydi, balki ularning samaradorligini oshirish, byudjet intizomini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Global iqtisodiy murakkabliklarga qaramay, O'zbekistonda davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda byudjet mablag'lari ustidan nazoratni kuchaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Amaliyotda mavjud muammolar - byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, mahalliy kengashlar nazoratining yetarli emasligi, tashqi qarz va byudjetdan tashqari mablag'larning to'liq audit qilinmasligi hamda kadrlar salohiyatining yetishmovchiligi - moliyaviy nazorat tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Xalqaro tajribada qo'llanilayotgan strategik audit, axborot texnologiyalari auditi va risk tahliliga asoslangan masofaviy monitoring kabi mexanizmlarni milliy amaliyotga joriy etish, shuningdek, ochiq byudjet portallari orqali jamoatchilik nazoratini kengaytirish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, "Elektron byudjet" tizimi joriy etilishi hamda Hisob palatasida "Masofaviy nazorat markazi"ning tashkil qilinishi moliyaviy nazoratni yangi bosqichga olib chiqdi. Kelgusida ichki va tashqi audit tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, moliyaviy organlar o'rtasida axborot almashish mexanizmlarini takomillashtirish orqali byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Umuman olganda, moliyaviy nazoratning izchil rivojlantirilishi davlat byudjeti mablag'lari sarflanishida oshkoralik va hisobdorlikni ta'minlaydi, fiskal intizomni mustahkamlaydi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020 - 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 506-son Qarori.

2. Malikov T.S., Xaydarov N.X., Davlat budjeti. O'quv qo'llanma - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007-y.

3. B.K.Hamdamov, A.A.Ostonokulov. O'quv qo'llanma. "Budjet nazorati". "Iqtisod-Moliya", 2018-y. 7-b.

4. B.Nurmuhamedova. Davlat budjeti. Darslik. T.: - "Iqtisod-moliya"-2019-y.
5. Robert D. Lee Jr., Ronald W. Johnson. Public Budgeting Systems. 10th edition. USA, 2020-y.
6. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.
7. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
8. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.
9. Жуманиязов, И. Т. (2016). Основные задачи Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. Наука, образование и культура, (7 (10)), 27-28.
10. Жуманиязов, И. Т. (2016). Направления использования средств Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. Economics, (7 (16)), 28-29.
11. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. Science and Education, 3(5), 1637-1645.
12. Inomjon Turaevich Jumaniyazov, & Bexruz Hazratov (2022). Foreign experience in the development of special economic zones in Uzbekistan. Science and Education, 3 (5), 1628-1636.
13. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486-1493. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
14. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509-1516.
15. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.-Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).
16. Jumaniyazov, I., & To'laganova, F. (2023). Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi. Science and Education, 4(6), 836-847. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6095>
17. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbliigi. Science and Education, 4(6), 853-859. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>

18. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915-920. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
19. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and Education*, 4(6), 881-887. Retrieved from <https://opendscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
20. Inomjon, J., & Sarvar, a. (2023). Suveren fondlar faoliyati va ularning moliyaviy mablag'larini samarali foydalanishning xorij tajribasi. *pedagogs jurnali*, 35(4), 102-108.
21. The social importance of sovereign wealth funds. (2024). *Ustozlar uchun*, 1(4), 1028-1034.
22. Targeted planning of budget expenditures and impact on social policy. (2024). *Ustozlar uchun*, 1(4), 1442-1444.
23. Iqtisodiyotni rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. (2024). *Ustozlar uchun*, 1(4), 1418-1422.
24. O'zbekiston respublikasida davlat xaridini tashkil etish va uni takomillashtirish. (2024). *Ustozlar uchun*, 1(4), 1428-1432.
25. <http://www.mf.uz> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
26. <http://www.soliq.uz> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy sayti.